

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

KUNDUZGI BO'LIM
MUSIQA NAZARIYASI, TARIXI VA AN'ANAVIY IJROCHILIK
KAFEDRASI

Maxmudova Ma'mura Faxriddinovna

**MAKTAB MUSIQA DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARNI MUSIQIY
QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH**

“5141000-musiqiy ta'lism” yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: dots. Kiyamov N.

Bitiruv malakaviy ishi musiqa nazariyasi, tarixi va an'anaviy ijrochilik kafedrasida bajarildi.

Kafedraning 2011-yil 26-maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnomma № 10)

Kafedra mudiri: dots. Valixo'jayev N.

Bitiruv malakaviy ishi YaDAKning 2011-yil «___» ____dagi majlisida himoya qilindi va ___ ball bilan baholandi (bayonnomma №____).

YaDAK raisi: _____

A'zolari: _____

Samarqand – 2011

Kunduzgi bo'lim

«Musiqiy ta'lif yo'nalishi» musiqa nazariyasi, tarixi va
an'anaviy ijrochilik kafedrasи

**Maktab musiqa darslari orqali o'quvchilarni musiqiy
qadriyatlar ruhida tarbiyalash**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Bajaruvchi:
Ilmiy rahbar:**

Maxmudova Ma'mura
dots. Kiyamov N.S.

Samarqand - 2011

A.Navoiy nomidagi SamDU kunduzgi bo'lim musiqiy ta'lif yo'nalishi 4 kurs bitiruvchi talabasi Mahmudova Mamuraning "Maktab musiqa darslari orqali o'quvchilarni musiqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash" nomli mavzusida yozilgan bitiruv malakaviy ishiga

M U L O H A Z A

Prezidentimiz I.A.Karimov xalqimizning ma'naviyati, madaniyati, haqiqiy tarixi, milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi va ularni zamonaviy rux bilan boyitib borishimizni, jamiyatimizni yangilash hamda taraqqiy ettirishdagi muhim omil deb baholadilar. Yurtboshimizning sog'lom avlodni shakllantirish, mustaqil mamlakatimizni yanada ravnaq toptirida hal qiluvchi, belgilovchi ahamiyatga ega ekanligi to'g'risidagi g'oyasini izchil olg'a surishi falsafiy nuqtি nazardan tamomila asoslidir.

Mustaqil O'zbekistonimizda ro'y berayotgan mana shunday ijobiy o'zgarishlardan hamda yoshlarimizning ta'lif-tarbiyasini yanada takomillashtirishi maqsadida bir o'zimizning ilmiy tadqiqot ishlarimizni dolzarbligini yanada guvohi bo'ldim.

Bitiruv malakaviy ishning birinchi bobи "Yuqori sinf o'quvchilarining umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy asoslari" deb nomlansa, ikkinchi bobи "Yuqori sinf o'quvchilarini umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda musiqa darsining o'mni" deb nomlanadi. Bitiruvchi Mahmudova Mamura o'zining bitiruv ishini yozishda maktab o'quvchilarini musiqa san'ati vositasida vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning istiqbollari, kelajak vazifalari, usul va uslublari shu bilan birgalikda nechog'lik amaliy ahamiyatga egaligini yoritishga harakat qilgan.

Shu munosabat bilan Mahmudova Mamura tomonidan bitiruv malakaviy ish sifatida yozilganligi **Yak. D.A.K** ning barcha talablariga javob beradi.

Ish Mahmudova Mamura tomonidan mustaqil holda bajarilgan bo'lib, kirish, asosiy qism, 2 bob, 4 paragrif, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Men, Ilmiy rahbar sifatida Mahmudova Mamura tomonidan yozib to'liq tugallangan va mustaqil bajarilgan bitiruv malakaviy ishini Yakuniy D.A.K – yig'inida himoya qilishga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

dots. Kiyamov N.S.

A.Navoiy nomidagi SamDU kunduzgi bo'lim musiqiy ta'lif yo'nalishi 4 kurs bitiruvchi talabasi Mahmudova Mamuraning "Maktab musiqa darslari orqali o'quvchilarni musiqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash" nomli mavzusida yozilgan bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Mustaqil Respublikamiz milliy istiqloliy o'zgarishlarni boshidan kechirayotgan hozirgi davrda yoshlarning oldida ulkan vazifalar qo'yadi. Ayniqsa, milliy mafkura, milliy istiqlol g'oyasi, ma'naviy shakllanish, madaniy meros va umuminsoniy qadriyatlar sohasida kuchli izlanishlar zarurdir. O'zgarish va yangilanish ma'naviy barkamollikka erishish uchun avvalo, ahloqiy, ma'naviy va nafosat tarbiyalarini rivojlantirish eng dolzarb masala hisoblanadi.

Malumki, o'quvchilarni ma'naviy ahloqiy sifatlarini shakllantirishida asosiy muammosi, "Ta'lif to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarini amalga oshirishning muhim qarorlaridan biri va boshlang'ich vazifalaridan biri musiqa pedagogikasi fakultetlarida bo'lg'usi o'qituvchilarni professional jihatdan puxta tayyorlashdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishning birinchi bobi "Yuqori sinf o'quvchilarining umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy asoslari" deb nomlansa, ikkinchi bobi "Yuqori sinf o'quvchilarini umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda musiqa darsining o'rni" deb nomlanadi. Bitiruvchi Mahmudova Mamura o'zining bitiruv ishini yozishda maktab o'quvchilarini musiqa san'ati vositasida vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning istiqbollari, kelajak vazifalari, usul va uslublari shu bilan birgalikda nechog'lik amaliy ahamiyatga egaligini yoritishga harakat qilgan.

Shu munosabat bilan Mahmudova Mamura tomonidan bitiruv malakaviy ish sifatida yozilganligi **Yak. D.A.K** ning barcha talablariga javob beradi.

Ish Mahmudova Mamura tomonidan mustaqil holda bajarilgan bo'lib, kirish, asosiy qism, 2 bob, 4 paragrif, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Men, taqrizchi sifatida Mahmudova Mamura tomonidan yozib to'liq tugallangan va mustaqil bajarilgan bitiruv malakaviy ishini **Yakuniy D.A.K** – yig'inida himoya qilishga tavsiya etaman.

Samarqand shahri 1 son musiqa

va san'at maktab direktori:

S.Usmonov

**MAVZU: MAKTAB MUSIQA DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARNI
MUSIQIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH**

R E J A :

Kirish.

Asosiy qism.

I-bob: Yuqori sinf o'quvchilarining umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.

1.1. Yuqori sinf o'quvchilarining umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirishning uslublari.

1.2. O'zbekiston umumta'lim maktablarida musiqa darslarining hozirgi holati va uni rivojlantirish omillari.

II-bob: Yuqori sinf o'quvchilarini umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirishda musiqa darsining o'rni.

2.1. Xor bo'lib kuylashning tarbiyaviy asoslari.

2.2. Yuqori sinf o'quvchilarini umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirishda optimal metodlardan foydalanish.

Xulosa.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Nota ilovalari.

**MAVZU: MAKTAB MUSIQA DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARNI
MUSIQIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH**

M U N D A R I J A :

Kirish.

Asosiy qism.

I-bob: Yuqori sinf o'quvchilarining umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.

1.1. Yuqori sinf o'quvchilarining umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirishning uslublari.

1.2. O'zbekiston umumta'lim maktablarida musiqa darslarining hozirgi holati va uni rivojlantirish omillari.

II-bob: Yuqori sinf o'quvchilarini umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirishda musiqa darsining o'rni.

2.1. Xor bo'lib kuylashning tarbiyaviy asoslari.

2.2. Yuqori sinf o'quvchilarini umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirishda optimal metodlardan foydalanish.

Xulosa.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Nota ilovalari.

KIRISH

Prezidentimiz I.A.Karimov xalqimizning ma’naviyati, madaniyati, haqiqiy tarixi, milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi va ularni zamonaviy rux bilan boyitib borishimizni, jamiyatimizni yangilash hamda taraqqiy ettirishdagi muhim omil deb baholadilar. Yurtboshimizning sog’lom avlodni shakllantirish, mustaqil mamlakatimizni yanada ravnaq toptirida hal qiluvchi, belgilovchi ahamiyatga ega ekanligi to’g’risidagi g’oya’ni izchil olg’a surishi falsafi nuqtasi naardan tamomila asoslidir.

Mustaqil O’zbekistonimizda ro’y berayotgan mana shunday ijobiy o’zgarishlardan hamda yoshlarimizning ta’lim-tarbiyasini yanada takomillashtirishi maqsadida bir o’zimizning ilmiy tadqiqot ishlarimizni dolzarbligini yanada guvohi bo’ldim.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarimizda biz IV-VII sinf o’quvchilari bilan suhbat, savol-javob va anketa savollari orqali o’tkazilgan tahlillar natijasida ularning ahloqiy sifatlarini shakllanish darajasini yetarlicha emasligining guvohi bo’ldik.

Malumki, musiqa darslari o’quvchilarni ahloqiy sifatlarini, umuminsoniy qadriyatlarni va ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishning eng asosiy omilaridan biri hisoblanadi. Musiqa darslari o’quvchilarni yemosional hissiy jarayoniga ta’sir qilib, ularda ijobiy fazilatlarini shakllantiradi.

Malumki “Ta’lim to’g’risida”gi qonun va “Milliy dastur” talablarida ham, yoshlarni tarbiyalashda milliy qadriyatlardan keng foydalanish, milliy mafkurani yoshlarda shakllantirish, ma’naviy va ma’rifiy sohadagi ishlarni takomillashtirish, uzuksiz ta’lim muammolarini hal etish masalalari alohida etiborga ega.

Musiqa tizimi hozirgi vaqtida umumta’lim maktablarida birinchi sinfdan yettinchi sifalarda haftasiga bir soatdan o’tkazilmoqda. Bunga boshlang’ich sinflarda musiqa ta’limini musiqiy ta’limotlari bor yo’qligidan qatiy nazar

boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'zлari olib bormoqdalar. Bunday holatlar ta'lim-tarbiyasini samarali borishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligi mакtab musiqa darslari orqali o'quvchilarni musiqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning malakaviy bilimlarini shakllantirish, barkamol avlodni ma'naviy dunyoqarashini oshirish va kamol toptirish, hozirgi vaqtning eng dolzarb masalasi bo'lish bilan birga Davlat ahamiyatiga ega bo'lganligi, ozod va obod Vatan barpo etishdek ulug' va oliyjanob maqsadga erishish uchun jasurlik va fidoyilik ruhida tarbiyalash Prezidentimiz I.A.Karimovning olib boradigan izchil siyosatini chuqur targ'ib qilish, o'zbek xalqining ulug' mutafakkirlarining qutlug' merosidan yoshlarimizni bahramand qilish, milliy istiqlol g'oyalariga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalash, boy, tarixiy, ilmiy, falsafiy, madaniy va ahloqiy merosiga, buyuk qadriyatlariga hurmat, milliy g'urur kabi hislatlarini oshirish, tarbiya, san'at va ahloqning birligi, shu qadriyatlarni baholash nazariyasiga, milliy o'zligini anglash orqali yuksak yo'lни bosib o'tgan ilg'or Davlatlarning tajribasidan iboratdir. Shu bilan birga o'quvchilarimizni raqobatbardosh mutaxassislar bo'lib yetishishlari va bu uchun ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish eng asosiy dolzarb muammolardan biri ekanligi.

Bitiruv malakaviy ishimizning maqsadi: o'quvchilarni musiqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy asoslarini va amaliy yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish.

Maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni hal qilish zarur:

1. IV-VII sinf o'quvchilarining umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda musiqa darslarining imkoniyatlarini aniqlash.
2. Musiqa darslarida o'quvchilar tomonidan musiqani emotSIONAL hissiy qabul qilishini pedagogik-psixologik tahlil qilish.
3. Musiqa darsida va IV-VII sinf o'quvchilarining umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish jarayonida ularda ma'naviyatni shakllantirishning faol shakllarini aniqlash.

4. Respublikamizda hozirgi vaqtida musiqa darslarini tashkil qilishning holatini aniqlash.

5. Musiqa darslari jarayonida o'quvchilarda ahloqiy sifatlarini, umuminsoniy qadriyatlarni hamda ma'naviyatni shakllantirish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishimizning obyekti, umumta'lim maktablarida o'quvchilarni musiqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishimizning predmeti, o'quvchilarda musiqa madaniyati fanini o'rganish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishimiz quyidagi optimal uslublardan foydalanishni taqozo etadi:

1. IV-VII sinf o'quvchilarini ahloqiy, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish maqsadida har bir musiqa asarlarini o'qituvchining o'zi chuqur tahlil qilgan holda o'quvchilarga o'rgatish.

2. Har bir musiqa darslarining asosiy maqsadi aniqligini taminlash.

3. Musiqa darslarida ta'lim va tarbiyaviy vositalarning chambarchasligi.

4. Har bir tarbiyaviy maqsad va vazifaning uzviylici va izchilligi.

5. Musiqa darslarining har bir choragi uchun mazkur musiqa asariga taalluqli o'quv materiallarini to'g'ri tanlash.

6. Musiqa darslarida o'quvchilarda umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda eng samarali natija beradigan uslublarni tanlash.

7. Har bir musiqa asarining o'quvchilarda emotsional hissiy qabul qilish jarayonida individual xususiyatlarni hisobga olish.

8. Musiqa darslarining tashkiliy qismini aniqlash.

9. IV-VII sinf musiqa darslarida o'quvchilarni individual va jamoa bo'lib ish olib borishni to'g'ri yo'lga qo'yish.

10. Har bir o'qituvchining individual holatini yaxshi bilish.

11. Olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning uslublarini turlicha bo'lishi, mazmundorligi, emotSIONalligi va tempini aniqlash.

12. Musiqa darslarining tashkiliy qismiga alohida etibor berish.

13. Musiqa darslariga oid jihozlar bilan taminlaganlik darjasи.

14. O'qituvchining musiqiy qobiliyati past o'quvchilar bilan olib boradigan individual ish rejasi.

Bitiruv malakaviy ishimizni uch davrga bo'lib olib borishni maqsad qilib qo'ydik:

a) Birinchi davr: 2008 yilda bitiruv malakaviy ishimiz uchun materiallar to'plandi. Samarqand shahridagi 28, 64 va 8-umumta'lim maktablarida IV-VII sinf o'quvchilarini tarbiyalaganlik jarayonini chuqur o'rganildi. Har bir musiqa darslari qiyosiy tahlil qilindi. Tanlab olingan o'quvchilar kuzatildi, ularning musiqaviy qobiliyati va his-tuyg'ulari o'rganilib, musiqaviy qobiliyati va eshitishi hamda ijro etishi bo'yicha ko'nikma va mashqlari kuzatildi.

Bundan tashqari, har bir o'quvchining oiladagi, shart-sharoiti, muhiti o'rganilib, ota-onalarining o'z bolalariga ahloqiy-musiqaviy qobiliyati va his-tuyg'ulari, ularning munosabati o'rganildi. Bu kuzatishlar jarayonida tadqiqot va kuzatuv guruhlari belgilandi. Bu esa birinchi davrdayoq o'quvchilarning ahloqiy-ma'naviy dunyoqarashining shakllanganligi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishga imkoniyat yaratdi.

b) Ikkinchi davrda 2009 yilning ikkinchi yarmida pedagogik-psixologik olimlarning ilg'or maktablari tajribalari umumlashtirilib o'rganildi. O'quvchilarning ahloqiy-ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish yo'l-yo'riqlari ishlab chiqildi.

v) Uchinchi davrda 2010 yilda tanlangan pedagogik-psixologik yo'l-yo'riqlar to'g'ri va noto'g'rili tekshirilib, shakl va uslublari ishlab chiqildi. O'quvchilarning ahloqiy-ma'naviy dunyoqarashining shakllanganlik darjasи o'quvchilarning o'qishga munosabatidan, emotsional-ijodiy faolligidan, ularning yurish-turishlaridan aniqlanadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy yangiligi shundan iboratki, Respublikamizdagi musiqa pedagogikasi bo'yicha taniqli olimlarimiz pedagogika falari doktori, professor H.Nurmatov "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik tarbiyasini amalga oshirish" muammosi bo'yicha ilmiy-izlanishlarini olib borib, Respublikamizdagi umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf musiqa darslari to'liq tahlil etildi. Bunda har bir o'quvchining musiqiy-hissiy qobiliyati va emotsiyal idroki masalasi bosh masala qilib qo'yilganligi bilan qimmatlidir.

Pedagogika fanlari nomzodi K.Mamirov "Boshlang'ich sinf musiqa darslari orqali o'quvchilarni ahloqiy tarbiyalash" muammosini to'liqligicha yoritishga harakat qilgan. Malumki o'quvchilarning ahloqiy tarbiyasini takomillashtirish har doim ham dolzarbligicha qolgan. Shundan kelib chiqib, K.Mamirov ilmiy tadqiqot ishlarini umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflarini ilmiy-izlanish obyekti qilib olganligi bilan ajralib turadi. R.Qodirovning "Umumta'lim maktablari musiqa darslarida ahloqiy estetik tarbiyalashda qo'shiq o'rganish, hamda musiqa tinglash jarayonida estetik dunyoqarashning pedagogik asoslari", turli xil optimal uslublar orqali tahlil qilib berilgan.

Bundan tashqari, pedagogika fanlari nomzodi, dosent N.Tolliboyevning ilmiy-tadqiqot ishlarida "O'quvchilarni musiqa darslarida o'zbek xalq og'zaki ijodi orqali estetik dunyoqarashini shakllantirish" bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi va o'tmish merosimizda xalq og'zaki ijodini o'quvchilar tarbiyasida tutgan o'rni hamda uni yanada takomillashtirish yo'l-yo'riqlari ishlab chiqilgan.

Pedagogika fanlari nomzodi I.Razzoqov "Umumta'lim maktablari 4-7 sinf musiqa darslarida o'quvchilarning umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish" bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib, o'quvchilarning umumta'lim va umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish bo'yicha bir qancha ilmiy maqolalar, ko'rsatmalar va uslubiy qo'llanmalar yaratib, musiqa darslarida o'quvchilarning umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish yo'l-yo'riqlari belgilab berilgan.

Pedagogika fanlari nomzodi N.Kiyamovning "Maktab musiqa darslarida o'smirlarni vatanparvarlik va baynalmilal tuyg'ularini shakllantirish" mavzusidagi

nomzodlik dissertatsiyasida, sinfda va sinfdan tashqari musiqiy mashg'ulotlarning o'quvchilarni vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirishning, tarbiyalashning ilmiy asoslari ko'rsatilib berilgan.

Bundan tashqari, Respublikamizdagi ko'pgina olimlarning ilmiy izlanishlarida musiqa san'ati o'quvchilarni ahloqiy-estetik tarbiyasida tutgan o'rni aniq yo'l-yo'riqlar asosida ko'rsatib berilgan. Hozirgi davrda IV-VII sinf musiqa darslarida o'quvchilarning umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish ularning ma'naviy dunyosini boyitish siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan jarayon bo'lib, bu borada qilinishi kerak bo'lgan bir qancha muammolar bor. O'quvchilarning ahloqiy fazilatlarini oshirish, shakllantirish ishlari o'quvchilarning aynan shu davrida (9-10 yoshdan 14-16 yoshli) hayotga bo'lgan munosabatlari shakllanayotgan, dunyoqarashlari o'zgarayotgan, atrof-muhitga, odamlarga bo'lgan munosabatlari shakllanayotgan bo'ladi. Shuning uchun ham bu davrda musiqa o'qituvchilaridan katta masuliyat talab qilinadi. Ayniqsa, musiqa darslarida o'quvchilarning ahloqiy sifatlarini oshirish katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa IV-VII sinf o'quvchilarining umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish imkoniyatlarini oshiradigan, yoshlikda olgan to'g'ri tarbiya insonning bir umrlik yo'ldoshi bo'lishi mumkin. Shunday qilib, ishimizni "Musiqa darslari orqali o'quvchilarni musiqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash" deb nomladik.

Bitiruv malakaviy ishimizning tarkibiy tuzilishi: Kirish, Asosiy qism, 2 bob, 4 paragrif, xulosa, nota ilovalari va foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir.

I-bob: Yuqori sinf o'quvchilarining umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.

1.1. Yuqori sinf o'quvchilarining umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirishning uslublari.

Kundalik hayotimizda, jamiyatimizning madaniyatini vujudga keltirishda, uning ma'naviy hayotida, davrimizga munosib har tomonlama barkamol badiiy didli, sog'lom fikrli yoshlarni tarbiyalash voyaga yetkazishda musiqa san'atining o'rni ahamiyatli bo'lib kelmoqda. Jumladan, chet el, o'zbek musiqa madaniyatining poydevorini vujudga keltirishda mehnatkash xalq tomonidan yaratilgan kuy va qo'shiqlar kishi qalbini o'ziga rom qilib, asrlash osha xalq uchun ilhom manbai bo'lган va insonlarga ma'naviy ozuqa berib kelgan.

Xalqimiz o'zlarining beba ho'miqda durdonalarini yaratgani, bu asarlar hozirgi milliy musiqamizga asos bilan bir qatorda, doimo go'zallikka tashnalik sezgan inson qalbi to'ridan o'rinn olib kelmoqda. Inson qalbi go'zallikka tashnalik sezish bilan bir vaqtda go'zallik muhitidan o'ziga oladi va shakllanadi.

San'at kishilarga faqatgina ma'naviy ozuqa berib qolmasdan jismoniy kamolotga erishuvilda ham muhim rol o'ynaydi. Musiqaning keng ta'sirchan tarbiyaviy imkoniyatini o'rta asr mutafakkirlari A.N.Forobi, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Alishe'r Navoiy va boshqalar yuqori baholashgan. Ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alishe'r Navoiy asarlarida tambur, rubob, g'ijjak, nay, karnay, surnay kabi ko'pgina cholg'ularning nomlari qayd qilinadi.

Bular o'rta asrlarda kashf etilgan. Navoiy buyuk shoir, mutafakkir olim-musiqachi, tarixchi, pedagogik va mashhur davlat arbobi bo'lgan. Shoir o'z asarlarida insonning go'zalligini va ma'naviy boyligini va ijodiy mehnatini zavq, shavqini tarannum etadi. Olim o'z asarlarida musiqa san'atining tarbiyaviy imkoniyatlarini yuqor baholaydi. O'rta Osiyoning progressiv mutafakkirlari asrlar mobaynida musiqa go'zalligini real mavjud bo'lgan juda katta tarbiyaviy kuchga

ega bo'lgan san'at ekanligini tushuntirib berganlar. Jumladan, o'zbek xalq og'zaki ijodining ertak janrida ham musiqaning ta'sirchan tarbiyaviy imkoniyati keng o'rinn olgan.

Musiqa kishining ruhiga tez ta'sir etadi, uning ahloqiy-estetik qiyofasining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sadiiy She'roziy aytganidek: "Musiqa inson ruhining yo'ldoshidir".

Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqiy idrokni tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh masalasi bo'lib turadi.

Sharqning ko'pgina xalqlari kabi o'zbeklar o'tmish avlodning musiqa san'atida professionalizm eramizning birinchi asrlaridek vujudga keldi va asrlar davomida rivojlanib borib, ijrochilik madaniyatida ham vokal va cholg'u musiqa janrlarida ham yuksak badiiy natijalarga erishdi. Ammo professional musiqachilar bizning asrimizgacha ya'ni XX asrgacha amalda nota yozuvini qo'llashmadı.

Milliy ta'lif va tarbiya o'z mazmunida insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, axloqiy va umuminsoniy fazilatlarni mujassam etishi bilan jamiyat rivojida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda milliy ta'lif va tarbiya oldidagi eng muhim vazifalardan biri ham o'quvchi-yoshlarda milliy ong va milliy madaniyatni tarkib toptirishdan iboratdir. Bu esa, birinchi navbatda ta'lif va tarbiya ishlarida milliy-ma'naviy qadriyatlardan unumli, oqilona va o'z o'rnida foydalanishni taqozo etadi. Fikrimizni prezidentimiz I.A.Karimovning "Biron bir jamiyat ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaratishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz"-degan gaplari ham tasdiqlaydi (Karimov I.A. "O'zbekiston buyuk kelajak sari". T., O'zbekiston, 1998).

O'zbek xalqi milliy qadriyatlari tizimida xalq musiqa ijodiyoti xalq hayotini barcha tomonlarini aks ettirish qamrovi va ko'lami bilan o'tmishning "jonli

ensiklopediyasi” hisoblanadi. Unda xalqimiz hayotining turli davrlaridagi tarixiy-badiiy ko’rinishlari bilan birga xalq pedagogikasining eng ilg’or, olivjanob g’oyalari umumlashganligi bois, yoshlarning badiiy-estetik va axloqiy, ma’naviy tarbiyasida foydalanish ta’lim sohasiga qo’yilayotgan ijtimoiy buyurtmani bajarishda qo’l keladi.

Umumta’lim maktablarida xalq musiqa ijodiyotini o’rganishda nimalarga e’tibor berish, ta’limi va tarbiyaviy faoliyatni qanday tashkil qilish maqsadga muvofiq bo’ladi?

Ushbu yo’nalishdagi tadqiqiy izlanishlar quyidagi pedagogik talab va mezonlar asosida ish tutish ijobjiy natijalarga erishish imkonini berishni ko’rsatdi:

1. a) Xalq musiqa ijodiga mansub asarlarni har bir sinfning musiqiy mavzulari (yil, chorak) ga va dastur talablariga mosligi;

b) Asarlarning o’quvchilarni musiqiy qiziqishi, qobiliyati va ijrochilik imkoniyatlariga to’g’ri kelishi;

v) Tanlangan asarlarni o’quvchilarning musiqiy dunyoqarashi va tafakkurini pirovard natijada milliy madaniyatini shakllantirish nuqtai nazaridan tarbiyaviy ta’sirchanlikka ega bo’lishi;

g) O’quvchilarda o’qishga, mehnatga, ijodiy izlanish, ijtimoiy foydali ishlarga rag’bat uyg’otishi;

d) Xalq musiqa ijodiyoti namunalarining, hozirgi kunda ham ahamiyatini yo’qotmagan umumhalq bayramlari, madaniy-ma’rifiy va ommaviy tadbirlar mavzulariga mosligi;

s) Asarlarni o’rganish ta’limning boshqa tarkibiy qismlarini (musiqa savodi, musiqa adabiyoti, musiqa ijodkorligi) o’zlashtirish uchun ahamiyatliligi yoki ijobjiy ta’sir ko’rsatish xususiyatiga egaligi;

2. Xalq musiqa ijodiyoti namunalaridan ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishda sinfda o’rganilgan mavzularni mustahkamlash nuqtai-nazaridan yondashish. Bu pedagogik talab musiqa darslarining asosiy faoliyat turlari mazmuni va mohiyatiga muvofiq holda ish yuritishni nazarda tutadi. Ya’ni, erkin

tanlov asosida o'rganilgan asar ayni vaqtdagi asosiy maqsad va hal etilayotgan vazifalarga ijodiy yondashish xarakterida bo'lishi lozim.

3. Dars va darsdan tashqari faoliyatda o'rganish uchun tanlab olingan namunalar o'quvchilarni an'anaviy mumtoz va folklor yo'nalishida mustaqil bilimlar olishga bo'lган talab va istaklariga mos kelishi va o'qituvchi tomonidan mashg'ulotlarni tashkil etishda e'tiborda tutilishi lozim. Bu pedagogik shart o'z mazmunida o'quvchilarni musiqiy iqtidor va qobiliyatlarini yuzaga chiqarish uchun izchil va maqsadli mashg'ulotlar olib borishni nazarda tutadi. Shuningdek, umumta'lim maktablarida o'quvchilarni dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarga imkon qadar keng va ommaviy jalb qilishni sinf va sinfdan tashqari ishlarda o'zaro aloqadorlikni kuchaytirishni o'qtiradi.

4. Xalq musiqa ijodiyotiga murojaat qilganda ularni qaysi mahalliy uslubga xosligi, janri, ijrodagi cholg'ular ishtiroki, raqs jo'rлиgi kabilarga e'tibor berish eng muhim shartlardan hisoblanmog'i lozim. Chunki, bu jihatdan o'quvchilarni umummusiqiy biluv darajasini takomillashuviga, milliy musiqaning o'ziga xos uslublarini, ijrochilik an'analarini chuqr o'zlashtirishlariga ijobiy ta'sir etadi, ta'kidlab o'tilgan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarga erishishni kafolatlaydi.

5. Umumta'lim maktablarida musiqa o'qituvchisi dars va darsdan tashqari faoliyatda o'quvchilarni xalq musiqa ijodiyoti bilan tanishtirib borishga nazariy, amaliy va uslubiy jihatdan doimiy ravishda tayyorgarlik ko'rib, o'z bilim va malakalarini oshirib borishi lozim.

Xalq musiqa ijodiyoti orqali o'quvchi-yoshlarni milliy madaniyatni shakllantirishda ushbu pedagogik talab va mezonlarni eng maqbul va mukammallikdan holi deyish fikridan yiroqmiz. Zotan, milliy musiqiy ta'lim va tarbiya'ni milliy negizda takomillashtirish vazifalari har bir pedagog-murabbiydan fidoyilikni, o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalangan holda ish tutishni talab qiladi.

O'zbek professional ijrochilik madaniyati rivojlanganli sababli, hofiz va sozandalar oldiga qadim vaqtlardayoq alohida talablar qo'yilgan.

Havaskor sozanda va xonandalar mashhur ustozlardan uzoq yillar ta'lim olganlaridan keyingina professional ijrochi sifatida yetishganlar.

Eng mashhur musiqachilar hatto XX asrlarda ham xon saroylarida xizmat qilish uchun amir saroyiga (yoki boshqa mansabdar shaxslar dargohiga) jalb etilardi. Ular hukmron shaxslarning ijozatisiz xalq oldiga chiqib o'z san'atlarini namoyish qilishdan mahrum edilar.

Ko'p qirrali muhabbat lirikasi lapar va yalla, ashulalar asosini tashkil etgan.

1.2. O'zbekiston umumta'lim maktablarida musiqa darslarining hozirgi holati va uni rivojlantirish omillari.

Xalq ta'limi tizimidagi, musiqa ta'lim-tarbiyasining mazmunini qayta tiklash jarayonida milliy musiqamiz tarixini, madaniy merosimizni, boy an'analarimizni har tomonlama o'rganib yosh avlodni ma'naviy, estetik va ahloqiy fazilatlarini tarbiyalab shakllantirish vazifasini musiqa o'qituvchisi zimmasiga yuklaydi. Demak, musiqa ta'lim-tarbiyasining saviyasini va samaradorligini oshirish hamda malakali mutaxassislar bilan taminlash hozirgi vaqtning eng dolzARB muammolaridan biri bo'lib, shuningdek, musiqa o'qituvchisini musiqa san'atining nazariy va amaliy sohalaridan bilim va malakalarga ega bo'lish bilan birga miliy maqsadimiz, madaniyatimio' va ma'naviyatimiz haqida ham puxta bilimga ega bo'lisi bilan uni o'quvchilar ongiga singdirishni taqozo etadi. Musiqa darslarining maqsadi o'quvchilarni san'at olami sir-sanoatlaridan bahramand qilish orqali ularni umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish, ularning dunyoqarashini, badiiy saviyasini, bilim doirasini, didini shakllantirishdir.

Bugungi kunda musiqa fanining o'qitilishi, holati, shart-sharoitlari yetarliligi, adabiyotlar bilan taminlanganlik darajasi, yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etilganligi va yangi sohasi funksional musiqa orqali musiqaning kishi psixikasi va fiziologiyasiga ta'sirini o'rganishi, buning eng dolzARB ko'rinishlaridan biridir.

Musiqa darsi o'zining aralash dars tipi strukturasi, ifoda vositalari ohanglar orqali o'quvchi-yoshlar ruhiyatiga kuchli ta'sir eta olish imkoniyatiga ega, shunday ekan, musiqa darslari bolalarning shaxsiyati va dunyoqarashida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, 9 yillik umumiyl o'rta ta'lim joriy etildi. Ta'limni demokratlashtirish, mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olish tamoyillari asosida barcha o'quv predmetlar, shu jumladan musiqa predmeti bo'yicha ham o'qitish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Musiqa madaniyati o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Musiqa madaniyati o'quv predmeti umumiy o'rta ta'lim mакtablarida o'qитиладиган барча о'quv predmetlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqalar bilan bog'lanadi.

Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartining joriy etilishi, milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatları, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o'z aksini topdi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo'lib yetishishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi. Azaldan, sharq, jumladan o'zbek musiqa ta'lim-tarbiyasi pedagogikasi va uning mukammal uslublari ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib borgan.

Davlat ta'lim standartlari ommaviy xalq musiqasi pedagogikasi, professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilar, katta ashulachilar, maqomchilar, dostonchilar asarlarining elementar asoslarini meyorlashtiradi.

Hozirgi vaqtida musiqa ta'limi rivojida O'zbekiston olimlari, bastakorlar, yetuk tajribali o'qituvchilar o'z dasturlari, darsliklari, tavsiyanomalari, qo'llanmalari bilan o'z hissalarini qo'shmaqdalar.

Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda barcha fanlar qatori "Musiqa tarbiyasi uslubiyati" fanining ham ahamiyati juda katta. Musiqa tarbiyasining asosi esa, musiqa darslari va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar hisoblanadi.

Musiqa tarbiyasi uslubining, ya'ni fanning maqsadi o'quvchilarning bilim doirasini kengaytirish, musiqa yo'nalishidagi olgan barcha bilim va malakalarni

amalda qo'llash uslublarini o'rganish, musiqa darslarida ijodiy yondoshish, o'quvchilarda diqqat-etiborni shakllantirish, shuningdek, texnika vositalari, ko'rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini, musqia o'qitish uslublarini puxta o'rganishga va o'quv jarayonida qo'llashga qaratilgan.

Unda musiqa ta'limi milliy va imliy asoslari, mazmuni, tuzilishi va tabaqalanish, musiqa rahbariga qo'yilgan zamonaviy talablar va o'tiladigan mashg'ulotlarning ilmiy-uslubiy tomonlari bayon etilgan. Musiqa tarbiyasi ishlariga yondoshish iqtidorli o'quvchilarga alohida etibor berish, tajribali o'qituvchilar ishini ommalashtirishni amalga oshirish qayd etilgan. Demak, musiqa darslari orqali o'quvchilarni ahloqiy-estetik ruhda tarbiyalashning asosiy maqsadlardan biri va mazmuni ular qalbida o'z xalqining shon-sharaflı o'tmishi bilan faxrlanish, g'ururlanish, iftixor tuyg'ularini uyg'otish, insonparvarlik, ahillik, kattalarga hurmat, do'stlik va boshqa ijobiy hislat va fazilatlarni shakllantirishdan iborat, shuning uchun musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs bo'lmosg'i lozim. U pedagogika, psixologiya, uslubika, etika va estetika nazariyasi, milliy musiqamiz qonuniyatlarini, madaniy merosimizni har tomonlama chuqr o'rganib, musiqa nazariyasining amaliy sohalaridan chuqr bilimga ega bo'lmosg'i lozim.

Yangi dastur va konsepsiya dars o'tish uchun o'qituvchi oldiga qo'yilgan barcha maqsad va vazifalarni amalga oshirishga tinimsiz mehnat qilish kerak. Chunki maktab hayotida musiqaning faoliyati nihoyatda beqiyosdir. Musiqa darslarining hozirgi vaqtdagi holatini va uning rivojlantirish yo'l-yo'riqlari haqida so'z borar ekan, musiqa ta'lim tarbiyasini targ'ib qiluvchi, o'quvchilarga singdiruvchi malakali mutaxassislar tayyorlashning ahvoli haqida to'xtalib o'tishimiz lozim. U milliy musiqiy merosimizni chuqr tahlil qila oladimi? Hozirgi musiqa o'qituvchilari ushbu talablarga javob beradimi?

Avvalo hozirgi davr talabidan kelib chiqib musiqa o'qituvchisi yangi musiqa darslari mazmunini milliy musiqa merosi ustuvorligida qayta ishlab chiqqan holda ijodiy yondoshib, yangi dastur asosida darsni o'tishi lozim.

Xalq ta'limi tizimidagi musiqa ta'lim tarbiyasining mazmunini milliy musiqamiz tarixini madaniy merosimizni, boy an'analarimizni har tomonlama o'r ganib, san'atning nazariy va amaliy sohalaridan bilim va malakalarga ega bo'lish bilan birga milliy musiqamiz, madaniyatimiz va ma'naviyatimiz haqida puxta bilimga ega bo'lishi lozim. Musiqa o'qitish uslubiyatiga o'qituvchi ijodiy yondoshib, darsni istagan faoliyat turidan boshlashi mumkin. Shuning uchun musiqa darslari boshqa darslardan quyidagi maxsus xususiyatlar bilan farq qiladi:

Birinchidan: U musiqa tarixi, nazariyasi va ijrochiliga doir turli namunalardan vokal-xor mashg'ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqa tahlili va adabiyoti, bolalar cholg'u asboblarida chalish, ritmik harakatlar bajarish darslari aralash tipiga kiradi.

Ikkinchidan: Musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositasi, ya'ni "til" bilan farq qiladi.

Agar badiiy adabiyot so'z bilan, tasviriy san'at ranglar va grafik chiziqlar bilan, raqs badiiy harakatlari bilan ifodalansa, musiqa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. Mashhur rus kompozitori R.M.Shiyer "Musiqaning mazmuni hayot taassurotlaridir, fikr va his-tuyg'ularni ohanglar orqali ifodalanishidir"- deganida tamomila haq edi. Agar tasviriy san'at va skulptura asarlarini ko'rish orqali badiiy adabiyotni o'qish va eshitish orqali, kino teatrni ko'rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina idrok eta olamiz.

Shuning uchun hattoki ko'zi ojiz kishilardan ham yetuk musiqa ijrochilarinnig yetishib chiqishi bejiz emas.

Faqat musiqiy quloqgina musiqaviy hissiyotni uyg'ota oladi. O'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi A.Navoiy ham "Musiqani idrok etmagan shoir nim shoirdir" deb baholagan.

Uchinchidan: Musiqa kishilarga kuchli hissiy ta'sir etish imkoniyatiga ega, ularni quvontiradi, ijodiy kechinmalar uyg'otadi. Yaxshi mazmunli, qiziqarli musiqa darslarida o'quvchilar quvnoq, xursand bo'lib, hordiq chiqarib, ma'naviy

dunyosi boyiydi. Emosional hissiy qabul darajalari shakllanib, estetik zavq oladilar.

II-bob: Yuqori sinf o'quvchilarini umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirishda musiqa darsining o'rni.

2.1. Xor bo'lib kuylashning tarbiyaviy asoslari.

O'quvchi-yoshlarning umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish muammolarining dolzarbligi barkamol avlodning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish hamda kamol toptirish hozirgi vaqtning eng dolzARB masalasi bo'lish bilan birga Davlat ahamiyatiga ega bo'lganligi, ozod va obod Vatan barpo etishdek ulug' va oliyjanob maqsadga erishish uchun jasurlik va fidoyilik ruhida tarbiyalash prezidentimiz I.A.Karimovning olib boradigan izchil siyosatini chuqur targ'ib qilish, o'zbek xalqining ulug' mutafakkirlari qutlug' merosidan yoshlarimizni bahramand qilish, milliy istiqlol g'oyalariga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalash, boy, tarixiy, ilmiy, falsafiy, madaniy va ahloqiy merosiga, buyuk qadriyatlarga hurmat, milliy g'urur kabi hislatlarini oshirish, tarbiya, san'at, ahloqning birligi va shu qadriyatlarni baholash nazariyasiga, milliy o'zligini anglash orqali yuksak yo'lni bosib o'tgan ilg'or davlatlarning tajribasidan iboratdir.

Malumki, musiqa san'ati o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy dunyoqarashini shakllantirishni eng asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Musiqa darsi va darsdan tashqari mashg'ulotlar – san'at darsidir. Bu kishilarga emotsional hissiy jarayoniga qattiq ta'sir qilib, ularda ijobjiy sifatlarini shakllantiradi. Bu esa o'quvchilarni yoshlik davridan ulardagi ijobjiy fazilatlarni shakllantirish imkoniyatlarini beradiki, yoshlikda olgan to'g'ri tarbiya insonning bir umrlik yo'ldoshi bo'lishi mumkin. Ushbu ulkan imkoniyatlardan kelib chiqib, quyidagilar muhim vazifa sifatida qo'yilgan.

Qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib IV-VII sinf o'quvchilarini musiqa darslari orqali umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish jarayonini boshqarishni quyidagi shakl va uslublari ishlab chiqildi:

1. IV-VII sinf o'quvchilarini umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirishda musiqa darsning imkoniyatlarini aniqlash;
2. O'quvchilar tomonidan musiqani emotsiyal hissiy qabul qilish va asardagi obrazlarni pedagogik-psixologik tahlil qilish;
3. O'quvchilar tomonidan musiqani emotsiyal-hissiy qabul qilish va asardagi obrazlarni pedagogik-psixologik tahlil qilish;
4. Musiqaviy badiiy faoliyat jarayonida umuminsoniy qadriyatlarning shakllanishi shakl va uslublarini hamda xolatini aniqlash;
5. Respublikamizda hozirgi vaqtida musiqiy tarbiya'ni tashkil qilinganlik holatini aniqlash;
6. O'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda ilmiy-amaliy konferensiyalarda dolzarb muammolarda maruzalar qilish;
7. Musiqa san'ati jarayonida o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda musiqa san'atidan foydalanishning optimal yo'llarini belgilash;
8. Musiqa darslari o'quvchilarning umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda ko'rgazmali vositalar va aniq faktlar ishlab chiqish va hokazo.

Xalq ma'naviy boyligining ko'zgusi bo'lgan o'zbek xalq qo'shiqlarining zarchashmalari tarixan olisdan boshlanib, xalq ijtimoiy hayoti bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib keldi. Xalq qo'shiqlarining ilk ko'rinishi inson ongingin rivojlanishi natijasida mehnat jarayonida vujudga kelgankim, mehnatkash xalq mehnat unumidan va tabiat go'zalliklaridan ilhomlangan holda o'zlarining qo'shiq va cholq'u ohanglarini ijod qilganligi bu musiqaviy meros hozirgi vaqtida o'zbek musiqa madaniyatining rivojlanishi uchun tub asos bo'lism bilan bir vaqtida, jahon xalqlarining ham sevimli qo'shiqlariga aylanib qolayotganiga guvohi bo'lamiz.

O'zbekiston Respublikasi o'zining ma'naviy yangilanish yo'lida ijodning barcha turlari rivojlanishiga sharoit yaratib berishga, o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ijodi va qobiliyatini o'stirish ishiga katta etibor

bermoqda. Bu esa umumta'lim maktablarida o'quv-tarbiya ishlarini yanada takomillashtirishni, ta'lim va tarbiya'ni mushtarakligiga erishishni taqozo etadi.

Musiqa darslarida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ijodiy faoliyatini oshirish tamoyillarini ishlab chiqish va amalga oshirish ta'limning ustuvor vazifalaridan biridir.

Musiqiy-ijodiy faollilik o'quvchilarning musiqiy qobiliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bir qator holatlar bilan bog'lanadi.

Musiqiy o'quv (tovushning baland-pastligi, ohanglar, usullar, ifoda vositalari, yakka ovozlik, jo'rovozlik), musiqiy idrok, musiqiqy tafakkur, musiqiy hayolat, tinglash va kuylash qobiliyati shular jumlasidandir.

Samarali metodika va uzliksiz ta'lim natijasida esa bu sifatlarni ham tez orada rivojlantirish mumkinligi tajribada isbotlandi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ijodiy faolligini oshirish bevosita ikki holatga bog'liq. Avvalo, o'quvchilarning hayotiy tajribasi va musiqiy taasurotlari ko'lami qay tarzda rivojlanganligi bilan belgilansa, so'ngra - musiqiy bilim berishning samarali yo'l va vositalarini qo'llash orqali sezilarli ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Musiqiy ijodiy rivojlanish bilan musiqiy layoqat bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-birini taqozo etadigan jarayondir. Musiqiy layoqat ijodning rivojlantirishni asosi bo'lib hisoblanadi. Musiqiy faoliyatni ijodga qaratilganligi esa musiqiy layoqatning keljakda rivojlanishiga bevosita yordam beradi.

Musiqiy bilim va ijodiy jarayonlar ta'sirida o'quvchilarning musiqa savodxonligini qay tarzda o'sa borishiga qarab bolaning ijodiy rivojlanishi ham ortadi va bu sifat musiqiy faoliyatning hamma turlariga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishda quyidagi holatlar doimo o'qituvchi etiborida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbek xalq musiqa merosi bilan tanishar ekanmiz, biz mehnatkash xalqning tarixiy bosib o'tgan yo'li, urf-odatlari, marosimlari, do'stlik, qahramonlik, Vatanga muhabbat, sof sevgi,adolat to'g'risidagi fikrlari, xalq poyeziyasi, estetik qarashlari hamda xalq pedagogikasi to'g'risida keng tushunchaga ega bo'lamiz.

“Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay O’zbekiston xalqi avloddan-avlodga o’tib kelgan o’z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o’ziga xos an’alarini saqlab qoldi”-degan edi hurmatli prezidentimiz I.A.Karimov.

Jumladan, musiqiy tarbiya’ni ajdodlarimiz asrlar mobaynida yaratgan musiqa merosini o’rganishdan boshlash kerak, shunday ekan, xalq musiqa merosini umumta’lim maktablarida o’rganilishi, har bir millat professional san’atning rivojlanishi uchun tub manba bo’lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi mushohadalarimizni davom ettiradigan bo’lsak, mumtoz maqom kuylar, milliy teatr va san’atimizning boshqa turlari uchun ham erkin rivojlanish darvozalari unchalik lang ochilmagan 10 yil ichida ne-ne malomatlar, tazyiqlar, taqiblar temir qolimlar iskanjasida bo’lsa-da, ilohiy-urfoniy nematlardan bebahra qolmadik. Teatrlarimizda sahnasidan milliy asarlarimiz, jahon klassikasi tushmadi.

“Milliy dastur va ta’lim to’g’risida” qonun talablaridan kelib chiqib, yuksak ma’naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashni yaxshilashni taqozo etar ekan, bu borada musiqiy merosimizning umumta’lim maktablarida o’rganishiga alohida etibor berilishini o’rni benihoya kattadir.

Umumta’lim maktablari musiqa darslari maqsadi, o’quvchilarning ma’naviy-ahloqiy ehtiyojlarini qondirish, o’quvchilarni musiqa olamiga qiziqtirish, eng asosiysi o’quvchilarga dars o’tish uslubikasini to’g’ri tashkil qilish va yangi pedagogik texnologiyalar bilan ularni darsga qiziqtirish, ularning dunyoqarashini, badiiy saviyasini, bilim doirasini, didini shakllantirish va ularning ahloqiy sifatlaridan shakllantirish kabi muhim vazifalardan iboratdir. Ushbu ma’naviy ahloqiy tarbiya’ning mazkur shaklida o’quvchilarning dunyoqarashini tekshirish qiziqishi, musiqiy asarlarni qabul qilish kabi xususiyatlarni oshirib, ijobiy fazilatlarini shakllantiradi. Hozirgi davr talabidan kelib chiqqan holda musiqa o’qituvchisining yangi musiqa darslarining mazmunini milliy musiqa merosi ustivorligida qayta ishlab chiqqan holda ijodiy yondoshib, yangi dastur asosida

darsni o'tishi lozim. Malumki, IV-VII sinf o'quvchilariga musiqa darslari muayyan mavzu asosida o'tiladi. Musiqa darslarida o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy hissiyotlarini, fazilatlarini shakllantiradi, asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Demak, umumta'lim maktablari IV-VII sinf musiqa darslarida ushbu maqsadga erishishning asosiy manbalari bo'lib hisoblanadi.

Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarda musiqa uquvini o'stirish uchun turli xil pedagogik uslublardan foydalanib dars o'tish talab etiladi. Musiqiy asarlar bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlanishi, ularni ravon, sodda, bolalarga tushunarli tilda ifodalash lozim. O'qituvchi musiqa asarini tahlil qilganda usul va uslublarni to'g'ri tanlay bilishi va amaliy ijrosini taminlash lozim bo'ladi. U har bir musiqiy faoliyat turiga ijodiy yondashgan holda o'quvchilarni jalb qilishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning musiqiy uquvini o'stirish uchun avvalam bor ularni darsga qiziqtira bilishi, hozirgi zamon musiqa san'ati yo'lida bo'layotgan yangiliklar, o'zgarishlarni dars mavzusiga bog'lagan holda o'qituvchi o'quvchi-yoshlarni musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish orqali o'quvchilarda musiqiy uquvni shakllantirish kerak.

Kuylangan va tinglangan musiqiy asarlar o'quvchilarning musiqiy uquvini o'stiribgina qolmay, balki ularning tarbiyasiga, axloq-odobiga, ma'naviyatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatmog'i lozim.

Mustaqil yurtimiz musiqiy san'atimizga bo'lган etibor, milliy musiqiy merosimizdan o'quvchi-yoshlarimizni bahramand qilish davlat ahamiyatiga molik ishlarning amalga oshirilayotganligini aytib o'tish joizdir.

Malumki, Respublikamizning yetuk olimlarining tadqiqotlarida mifik o'qituvchisining shaxsiyati, unga bo'lgan professional talablar va o'quvchilar munosabati xususiy uslublardan foydalanish jarayonida hal qilish lozimligini ilmiy asosda tariflab beradilar. Ammo-lekin ular amalda qo'llash usullarini, shu usul va uslublardan qanchalik samaradorlik bo'lishi muammo sifatida yoki o'rganilishi lozim ishlardandir desak to'g'ri bo'ladi. Xo'sh xususiy uslub nima? – xususiy

uslub bu – biron bir fanning amaliy va ijodiy ishlarini, mazmun mohiyatini yoritib beruvchi keng manodagi uslubdir, yoki boshqacha qilib aytganda o’qituvchi va o’quvchi faoliyatni o’zaro aloqadorligini, shu bilan birgalikda o’quvchilarni bilish jarayonida izlanishga undovchi uslubdir. Xususiy (optimal) uslublar o’qitish faoliyati va maqsadiga qarab to’rtga bo’linadi:

1. Darsni musiqaviy umumlashtiruvchi uslubi;
 2. O’tiladigan darslarga oldindan “yugurib” bog’lanib o’tish va ilgari o’tilgan darslarga qaytish uslubi;
 3. Dars mazmunining emosional dramaturgiysi uslubi;
 4. Darsning pedagogik jihatdan kuzatilishi va bilimlarning baholanish uslubi.
- Umumlashtiruvchi uslubi – yetakchi uslublardan biri bo’lib, o’quvchilarning musiqiy idrokiga, mantiqiy-badiiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan uslubdir:

- a) O’qituvchi darsda hal qilinishi lozim bo’lgan konkret vazifalarni vujudga keltiradi;
- b) O’qituvchi va o’quvchi birga, hamkorlikda masalani yechadi;
- v) O’quvchi tomonidan yakuniy xulosalar chiqariladi.

- Oldinga “yugurib o’tish” uslubi bo’lib, ilgari o’tilgan o’quv materiallardan foydalananib, o’quvchilarni yangi materialni o’zlashtirishga, ta’sirchanligini sinab ko’rish va shu usul oldin egallangan bilimlarga suya’nish uchun foydalilanadi.

- Emosional-dramaturgiya uslubi – bu uslub orqali darsning mantiqiy ahamiyatligiga erishiladi. Bunda chorak mavzusi asosida dars rejasi uchun asarlar tanlanadi. Tanlangan mavzular maqsadga muvofiq bo’lib boshlanish va yakunlanishiga bog’liq. O’qituvchi darsni ijrochilik mahorat va so’z ustaligi bilan qiziqarli qilib o’tishi kerak. Bundan tashqari musiqa o’qituvchisi maktabda musiqa

madaniyat darsidan tashqari konsertlar, badiiy kechalar, uchrashuvlar o'tkazib borish talab etiladi.

- Darsni pedagogik kuzatish va bilimlarni baholash maqsadiga qarab bir necha turga bo'linadi:

- a) O'quvchilarni bilish faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi turi;
- b) Bilim faoliyatini rag'batlantirish va tanbehlash talablarini qo'yish turi;
- v) O'qish, bilish faoliyatining samaradorligini boshqarish va nazorat qilish.

O'quvchilarni baholashda shunday ehtiyot bo'lish kerakki, o'quvchilarning kayfiyati tushmasligi, qo'shiq kuylashga bo'lgan qiziqishi so'nmasligi talab etiladi.

Shu bilan birga dars jarayonida o'quv uslublarini qo'llash bilan birga o'yin uslublari katta ahamiyatga ega. O'yin uslublari asosan boshlang'ich sinflarda yaxshi samarali natijalar beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari harakatchan va o'yinga moyil bo'ladilar. Dars jarayonida qo'llaniladigan musiqali o'yinlar o'quvchilarning musiqiy uquvini shakllantirishga xizmat qiladi, shu bilan birga musiqiy qobiliyatini rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi, darsga bo'lgan qiziqishini oshirib boradi. Shuningdek musiqa darslarida musiqa uquvi rivojlanmagan o'quvchilar bilan dars jarayonida differensial guruhlarga bo'lib, darsdan keyin vaqt ajratiladi. Ular bilan yakka tartibda (individual) ish olib boriladi. Differensial guruh deganda-o'quvchilarni musiqiy qobiliyati, uquvi va ovoziga qarab uchta guruhga ajratiladi. Bular:

- a) Guruhga ovozi jarangli, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilar kiradi;
- b) Guruhga ovozi, musiqiy qobiliyati o'rtacha bo'lgan, ya'ni, o'qituvchining ovoziga qarab, unga ergashib, taya'nib kuylay oladigan o'quvchilar kiradi;
- v) Guruhga ovozi unchalik yaxshi bo'lмаган, musiqiy qobiliyati sust, bo'sh bo'lgan o'quvchilar kiradi.

Musiqa dars jarayonida bu o'quvchilar bilan quyidagi tartibda mashg'ulotlar o'tkaziladi, ya'ni:

Birinchi qatorga o'qituvchining ovoziga taya'nib kuylaydiganlar – b guruhi, ikkinchi qatorga musiqiy uquvi bo'sh bo'lgan, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lmanan o'quvchilar – v guruhi, uchinchi qatorga musiqiy uquvi, qobiliyati, yaxshi, jarangdor ovozga ega bo'lgan o'quvchilar o'tkaziladi.

Yuqorida biz taklif etgan musiqiy-pedagogik uslublar asosida musiqa madaniyati fani boshlang'ich sinflarda tizimli olib borilganda musiqa darslari jarayonida o'quvchilarni musiqiy uquvini shakllantirgan bo'lamiz, qolaversa to'g'ri tanlangan musiqiy pedagogik uslublarni qo'llash orqali go'zal-jarangdor ovoz sohiblarini kashf etgan bo'lamiz.

San'atda benazir an'analarga ega bo'lgan Samarqandda so'nggi yillarda bu sohadagi manzara qanaqa?

Kuzatuvlar, san'atkorlar bilan uchrashuvlarimiz, musiqashunos mutasaddilar muloqoti shunday bazi xulosalarga olib keldiki, ahloqiy tarbiya'ning bulog'i bo'lmanish milliy musiqiy madaniyati targ'ibotchilarini ham, ijrochilari ham, san'at fidoiyilar, bilimdon kadrlar tayyorlashda ham salohiyat, mahoratni boy berayotganga o'xshaymiz. Bu keyingi o'n besh-yigirma yillik hodisa deb qarashlari lozim. Chunki bu jabhadagi ishlarimiz bo'yicha bor narsalar bilan kifoyalanib, ertamiz, istiqbolimiz, san'atkorlarning yangi avlodni to'g'risida jiddiy bosh qotirmadik. Buning ustiga boy madaniyatimiz tarixi, an'analari bilan zamonaviylik o'rtasida uzilishlar ro'y berganligini sezmay qoldik yoki loqaydlik, turg'unlik kasalliklariga mubtalo bo'ldik.

Ijodiy faollik talabalar tafakkurining o'sishiga, xotiraning rivojlanishiga, dars materialini o'zlashtirishga, musiqani ongli idrok etishga yordam beradi. Bunda talabalarning yoshi va imkoniyatlariga mos keladigan repertuar tanlash, ularning ijodiy faolligini oshirish zaruriy shartdir. Repertuar mazmunan boy, rang-barang, talabalarning idrokiga mos va tarbiyaviy qimmatga ega bo'lishi kerak.

Musiqa darslarining samarali bo'lishi sinfda talabalarni ijodiy faolligini oshirishga ham bevosita bog'liq. Talabalarning ijodiy faolligini oshirish o'qituvchining so'z mahoratiga, muloqot qilish san'atiga ega bo'lismi taqozo etadi. O'qituvchi qiziqarli hikoya va suhbati bilan talabalar diqqatini asar mazmuniga, musiqiy obrazlarga jalb etadi. Kompozitorlarning ijodiy biografiyasiga oid hikoyabop qiziqarli voqyea va lavhalardan parchalar keltirish bilan, biron bir asarning yaratilish tarixini bayon qilish bilan o'qituvchi talabalarning bilish qobiliyatini tekshiradi, musiqa haqidagi bilim doirasini yangi ma'lumotlar bilan boyitadi.

Talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish darslarni qiziqarli tashkil etishda muhim o'rinni tutadi. Malumki, talabalar dars materiallariga doimiy uzoq diqqat berib o'tira olmaydilar. Ular odatda harakat bilan bajariladigan ishlarga jondillari bilan kirishib ketadilar. O'qituvchi talabalarni bu xususiyatlarini hisobga olgan holda o'z darsida harakat bilan bajariladigan ishlarga ham keng o'rinni ajratadi. Boshlang'ich sinf musiqa darslari programmasi ham kuyi va vazni yengil, harakati o'rtacha va bir ovozli ashulalarni turli harakatlar, ya'ni xorovodlar, raqlar bilan ijro etishni tavsiya qiladi.

Bulardan tashqari, darsda ko'plab harakat metodlaridan foydalanish mumkin. Masalan, o'rganilayotgan qo'shiqning ritmiga qarsak chalib jo'r bo'lish, uning ohang yo'nalishini qo'l harakati bilan ko'rsatib berish, qo'shiqning har bir taktida stol chetiga ohista barmoq urib jo'r bo'lish va boshqalar.

Ayrim tajribali o'qituvchilar, deylik, musiqa tinglash qismida turli janrdagi, turli xarakterdagи kuylardan parchalar ijro etib, talabalarga chalinayotgan kuylar ichidan raqs yoki marsh kuyini topa olish va bu haqda ijroga halal bermasdan qo'llarini ohista ko'tarib belgi berish vazifasini topshiradilar. Qo'l harakatlarini musiqa mazmuniga moslash vazifasi ham talabalarda katta qiziqish uyg'otadi. Bu ham xuddi avvalgidek o'qituvchining ijrosiga halal bermagan holda talabalar har bir musiqani unga mos tushadigan harakatlar bilan ko'rsatib boradilar. O'qituvchi marshsimon musiqa ijro etayotgan bo'lsa – talabalar chap qo'l kaftlariga o'ng

qo'lning ikki barmog'ini qadam tashlagandek yurgizib turadilar. Raqs musiqasiga – qo'llarni belga qo'yib, vals musiqasiga chap qo'l kifti ustida o'ng qo'llarni chap va unga ohista harakat qildirib jo'r bo'lib boradilar.

Bunday harakat bilan bajariladigan mashqlar talabalarda qiziqish uyg'otibgina qolmay, ularning diqqatlarini hozirlaydi, hamjihatlik, qunt va etibor bilan mehnat qilishga o'rgatadi. Harakat jo'rligi bilan tinglangan asarlar talabalar tomonidan mustaqil va ongli idrok etiladi, xotirada uzoq vaqtgacha saqlanib qolinishiga yordam beridi.

Umuman musiqa darslarida talabalarning ijodiy aktivliklari, o'ziga xos tashabbuslari zarur talablardan biridir. O'qituvchi o'z talabalariga dars materiallarini bayon etar ekan, hamma narsani o'zi aytib berishga, tushuntirib berishga harakat qilmaydi, balki talabalarni fikrlash, tafakkur qilish qobiliyatlarini ishga soladi. Talabalarni o'ylash, taqqoslash, xulosa chiqarish, baholash malakalarini o'stira boradi va bu bilan o'z darsini yanada jonli, qiziqarli va ongli bo'lishini taminlaydi.

Talabalar o'z mahoratlarini boshqalar oldida namoyish qilishga katta qiziqish bilan qaraydilar. Xor va ansambllar guruhida ishtirok etib, turli konsert va chiqishlarda qatnashish talabalarga olam-jahon quvonch, zavq bag'ishlaydi.

Talabalarning ijodiy faolligini o'stirish uchun dars jarayonida "Men yoqtirgan kuy va qo'shiqlar", "Men sevgan kompozitor" kabi mavzularda munozarali suhbatlar, baxslar uyushtirish, talabalarga qiziqarli uy vazifalar berish, topishmoq, rebuslar o'ylab topish, ilg'or talabalarni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.

Talabalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib, musiqa darslarida turli harakatlar bilan bajariladigan o'yin elementlaridan foydalanish darsning samarali bo'lishiga yordam beradi. Talabalarning uchburchak, metallofonlar, har xil shiqli doqlar va boshqa urma cholg'u asboblaridan foydalanishlari yaxshi boyitadi, talabalarda yaxshi natijalar beradi. Bunday

mashg'ulotlar dars mazmunini yanada boyitadi, ijrochilik malakalari har tomonlama rivojlanadi, talabalarning faoliyati aktivlashadi.

Talabalarning ijodiy faolligini oshirish o'qituvchidan masuliyatli, o'ta izlanuvchan, ijodkor, topqir, ya'ni talabalarda ijodiy zavq uyg'ota olish mahoratiga ega bo'lishni talab etadi.

O'qituvchi talabalarga ko'plab qo'shiqlar o'rgatadi. Har bir qo'shiqni o'rghanishda uni avval vazmin suratda o'rgangandan keyingina uning o'z (tempi) surati va badiiy ijrosi ustida ishlamoq kerak bo'ladi. Bular musiqa asarining dinamik belgilari, musiqaviy urg'ulari, qochirim, nola va asarda uchraydigan har xil uslub va usullar (shtrixlar)dan iborat bo'lishi mumkin. Bazan talabalar, musiqa asarining boshidan oxirigacha bir xil zinalik balandlikda ijro etadilar.

Badiiylikka erishish uchun musiqaviy mashqlarni qayta-qayta takrorlash o'quvchi saviyasini mustahkamlaydi, o'rganganlari dilida muhrlanib qoladi. Shuning uchun ishni boshidan to'g'ri bajarishga o'rgatish lozim.

Biz o'qituvchilar bu borada yoshlarga ijobjiy o'rnak ko'rsata olishimiz, o'z hayotimizni go'zallik qonuni asosida yaratmog'imiz va ijodiy hayotni, tabiatni, borliqni yanada go'zal qilish yo'lida kurashmog'imiz hal qiluvchi omillardandir. Bunga erishmoq uchun biz o'z kamolotimiz ustida to'htovsiz ijodiy izlanishimiz, eng maqbul ta'lim va tarbiya usullarini hayotga joriy etmog'imiz lozim.

Mohir o'qituvchi shogirdlarini hayotdagi rang-barang xodisa va voqyealarni sinchkovlik bilan kuzatadigan, tahlil qila oladigan ilmiy tadqiqot ishiga qiziqadigan, bir umr o'zi o'qitgan fanning sehri bilan yashaydigan qilib tarbiyalaydi. Unday mohir ustozlarni shogirdlar bir umr eslaydilar.

Bir so'z bilan aytganda talabalarga puxta musiqiy bilim va tarbiya berish, ularning milliy qadriyatlarini oshirish va bu yo'lda ko'zlangan maqsadaga erishishda ularning ijodi, faolligi, darsga nisbatan munosabati, bilish, o'rghanish va o'zlashtirishga nisbatan intilishi va oqibatda musiqiy did va musiqiy ehtiyoj ham o'stirib tarbiyalab berishda muhim omil sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlariga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustdagи IX sessiyasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Ushbu qonunlar fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini huquqini taminlashga qaratilgan. Ta'limning o'quvchilar qobiliyatları va istedodlarining har tomonlama namoyon bo'lishiga qaratilganligini taminlovchi jarayonini tashkil etish va uning mazmuni tubdan yangilash, milliy va umuminsoniy ideallar va qadriyatlarning ustuvor ahamiyati, shaxs, jamiyat va atrof-muhit munosabatlarini uyg'unlashtirish, o'quvchilarga estetik, boy dunyoqarashini, yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy tafakkurni shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX va XIV sessiyalaridagi Prezidentimiz I.A. Karimovning nutqlarida uzluksiz ta'lim tizimini yangi darsliklar va o'quv adabiyotlari bilan taminlash masalasini qo'ydi va bu borada ko'pgina ishlar qilinmoqda. O'quv adabiyotlarining davlat ta'lim standartlariga mosligi va ularning sifati oshganligini umumiy o'rta ta'limdagи barcha fanlar o'quv adabiyotlarida kuzatishimiz mumkin. Jumladan, musiqa o'quv darsligida ham.

O'quvchilarga musiqa bo'yicha beriladigan ta'lim va tarbiya'ning mazmuni, maqsadi va uni amalga oshirishning shakl va uslublari ham qayta ko'rib chiqildi, ularga malum o'zgarishlar kiritildi.

Jumladan, boshlang'ich sinflarda musiqa ta'limining poydevori bolalar bog'chasidan boshlab shakllanib boradi. Shuning uchun ham 1-sinfdan boshlab o'quvchilarni musiqaga qiziqtirish, musiqiy taasurotlarini tarkib toptirish, zaruriy musiqiy ko'nikma va malakalarni hosil etish asosiy vazifa qilib qo'yiladi. Bolalar

o'zları sevgan qo'shiqlar, musiqali o'yinlar va raqslar bilan yaqindan tanishadilar, chiroyli va yoqimli qo'shiq kuylashni o'rganadilar, musiqa tinglash madaniyati bilan tanishadilar.O'quvchilar o'zbek xalq qo'shiqlari bilan chuqur tanishmay qolmoqda. Shu bilan bir vaqtida boshqa qardosh xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ahamiyatidan bebahra bo'lib kelmoqda. O'qituvchilarning o'zları xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy imkoniyatlarini yaxshi tushunmas ekan, umuman o'qituvchilarning ko'pchiligi xalq musiqa merosi bilan chuqur tanish emas. Bu esa xalqimizning asrlar osha yaratgan mehnat qo'shiqlari, mavsum marosim qo'shiqlari, lirik qo'shiqlari, tarixiy qo'shiqlarining musiqa darslarida atroflicha tahlil qilib o'rganishga salbiy ta'sir qilmoqda.

Musiqa darslari sohasida malakali mutaxassislar yetishmasligi ham darsni samarali o'tish uchun to'sqinlik qilmoqda. San'at shunday sehrli mo'jizaki hamma davr va zamonlarda ham mushtaraklik davo qilmaydi. Binobarin, bunday bo'lishi ham mumkin emas. To'y marosim qo'shiqlarining mavzui kelinni maqtash, kelinni kuyov oldidagi, uyidagi odob ahloq qoidalari, sodir bo'layotgan marosimning ko'tarinkiligi haqidagi obrazlari poetik taqqoslashlar bilan chegaralangan. Yuqorida eslatilganlardan tashqari to'y marosimining u yoki bu prosessi bilan bog'liq boshqa namunalar ham bor. Ularning har biri o'zining tuzilishi tartibi, ohang xarakteri, emosional ta'sirchanligi bilan farq qiladi.

Umumta'lim muktab muassasalarimizda avlodni tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi bo'lган badiiy ahloqiy tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli hal qilishga jiddiy etibor berilmoqda. Musiqa tarbiyasi badiiy estetik tarbiya'ning eng asosiy va ancha murakkab muammolaridan biri bo'lib, bolalarning musiqa san'ati asarlarini tushunishga, ijro etishga o'rgatishlarini kichik yoshdan boshlashni taqozo etadi.

Jumladan, dars musiqa tarbiyasi tizimida yetakchi omil hisoblanadi. Musiqa darslari boshqa fanlardan badiyligi, bolalarda ijodiy zavq, hissiy tuyg'ular, obrazli kechinmalar uyg'otish bilan birga spesifik xususiyatlari bilan farq qiladi. Musiqa ayniqsa, bolalarning aqliy va ahloqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

“Musiqa tarbiyasisiz bolalarda aqliy tarbiya’ni yetarli darajada bajarib bo’lmaydi”. Musiqa darslari tasviri san’at, adabiyot, tarix, tabiat, matematika va boshqa fanlar bilan ham bog’liqdir. Shuning uchun ham tuzilishi bir necha faoliyat turidan iborat:

1. Xor bo’lib kuylash;
2. Musiqa savodi;
3. Musiqa tinglash;
4. Musiqali ritmik harakatlar bajarish;
5. Bolalar cholg’u asboblarida jo’r bo’lish.

Mutatsiya lotincha “mutation”- o’zgarish demakdir. Jinsiy tiklanish davri boshlanishi mutatsiya davri deb ham ataladi. Birinchi, ikkinchi va uchinchi sinflarda o’g’il bolalar ovozi o’zining kuchi, tembri va diapazoni bilan qizlar ovozidan deyarli farq qilmaydi. Lekin o’n ikki va o’n besh, o’n olti yoshgacha o’g’il bolalar ovozida keskin o’zgarishlar bo’ladi. Qiz bolalarning ham mana shu yoshlarda katta o’zgarishlar bo’lib mutatsiya davri o’tadi. Ayrim pedagoglar mutatsiya davrida bolalarga ashula aytirmaslikni maslahat bersalar ayrimlari bolalarga shu davrda ham vokal tarbiyasini berish maqsadga muvofiq deb takidlaydilar. Pedagog bola ovozi apparptining holatidan har doim xabardor bo’lib turishi lozim. Mutatsiya davrida bola ovozidan juda ham keskin o’zgarishlar bo’lsa unga vaqtincha qo’shiq aytirmaslik lozim. Ovozda o’zgarishlar ham bo’lsa unga vaqtincha qo’shiq aytish uchun boshqa guruhga o’tkazish mumkin. Masalan, bola diskant soprana bir ovozda aytilayotgan bo’lsa, buni ikki ovozga ya’ni, alt guruhiga o’tkazish shuningdek, qiz bola bir sopranada bo’lsa uni ikki soprano bilan almashtirish mumkin. Repertuar tanlashda ham bu masala nazarda tutilishi ya’ni beshinchi va yettinchi sinf xoriga mos qulay teksturadagi va diapazoni uncha katta bo’limgan jo’shqin marsh hamda yumshoq mungli lirik xarakterdagи qo’shiqlar tanlash tavsiya qilinadi. Shunday qilib, mutatsiya davrida ehtiyyotlik bilan ashula aytirish ham bolalar ovozini saqlash yo’llaridan biri hisoblanadi.

Vokal-xor ishida xromatizm belgilaridan, elementlaridan foydalanish lozim. Chunki u tinglashdagi yirik asarlarda ko’p uchraydi. Ovozlarni o’rganadigan

qo'shiqlar va tinglanadigan asarlardan kichik parchalar bilan sozlash mazkur asarlarga bolalarni qiziqtiradi. Bunda ijro uslublarini batafsil tushuntirish lozim. Asarlarni tahlil etishda bolalarni faol qatnashtirish lozim. Asarlarni o'rgatish uslublari 6-7 sinf uslublaridan ko'p farq qilmaydi. 7-sinfda tinglashdan ancha murakkab bo'lgan asarlar o'tiladi. Ular misolida uvertyura, konsert, opera, kontana, simfonik kartina, simfonik poema kabi janrlar bilan taminlaydir.

Hozirgi kunda o'qitish uslublari klassifikatsiyasiga nisbatan bir necha qarashlar vujudga kelgan. Bizning nazarimizda musiqa o'qitishda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida o'zaro aloqadorlik va o'quvchilarning bilish jarayonida mustaqil izlanishga undovchi uslublar tizimini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Malumki, uslublar o'qitish faoliyati va maqsadga qarab quyidagi guruhga bo'linadi:

1. O'quvchilarning bilish qobiliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi uslublar. Bunga o'quv xabarini berish va uni qabul qilish yoki musiqani idrok etish tizimini vujudga keltiruvchi uslublar guruhiga kiradi. Ular og'zaki, ko'rgazmali, amaliy uslublar bo'lib, ularga o'qitishning mantiqiy va fikriy aspektlarni amalga oshiruvchi hamda boshqaruvchi uslubdir.

2. Bilish faoliyatini rag'batlantiruvchi va movitatsiya qiluvchi uslublar. Bunga bilishga undovchi o'yinlar, munozara, rag'batlantirish va tanlash, talablar qo'yish kabi uslublar kiradi.

3. O'qish, bilish faoliyati effektivligini boshqarish va nazorat qilish uslublari. Bunga so'roqning turlari, sinov, imtixon va boshqalar kiradi.

Yuqoridagilardan musiqa darslari spesifikasiga mos keluvchi va o'qitishning didaktik talablariga bajarishga vosita bo'luvchi birinchi va ikkinchi guruhga doir uslublar ko'proq qo'llaniladi. Bu uslublar o'qituvchi va o'quvchilarning o'rtaida vositachi hamdir. Chunki, aynan, bir uslub bilan o'qituvchi o'rgatadi, o'quvchilar o'rGANADI, uslublar uch guruhga og'zaki, amaliy, ko'rgazmali uslublarga bo'linadi.

Dastur choraklarga, mavzularga bo'liniyu umumdidaktik tizimlar asosida tuziladi.

2.2. Yuqori sinf o'quvchilarini umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirishda optimal metodlardan foydalanish.

Hozirgi vaqtida har qanday sharoitda ham insonning ma'naviy jihatdan pok, ruhan tetik va go'zal bo'lmosh'i hayot taqozosidir. Nafosat bu ahloq, san'at huquq singari inson ma'naviyatining qonuniyatini o'rganib va tahlil etadi. Shu jihatdan nafosat yuqoridagi zikr etilgan ilm sohalari bilan hamkorlikda rivojlanadi va takomillashadi.

Musiqani, tabiatni va go'zallik zarchashmalari bo'lgan barcha boshqa voqyealarni nafosatni bilish bilan badiiy did, nafosatli ideal, nafosatli kechirma go'zallikni va uyg'unlikni ko'rish, his qilish, ularni baholash qobiliyati singari alohida xususiyatlar, fazilatlar tarkib topadi. Mazkur musiqali asarlarning tahlil qilishning mana shu ko'rinishlari qanchalik rivojlanmasin, u oxirgi chegara bo'la olmaydi, balki ular takomillashib boradi.

Demak, kishilarning voqyeiylikka nafosatli munosabati bilan ijtimoiy ongli alohida shakl bo'lgan san'at o'rtasida eng yaqin aloqa mavjuddir. Shuning uchun ham nafosat faqat san'at to'g'risidagi fan bo'lib qolmaydi. Aksincha, u bir tomonidan, xalqning nafosatli ongini o'stirishda, kishilarning voqyeiylikka nafosatli munosabatlarini rivojlantirishda san'atning ahamiyatini ko'rsatib berish lozim.

Nafosat, umuman, dunyoni bilish, sezish bilan bog'liq bo'lib, insonning butun hayoti davomida namoyon bo'ladi. Insonning voqyeiylikka munosabati umumiy va yakka tomonlarga egadir: umumiy tomon – voqyeiylikning nafosatli hossalarini yoki ularning qadriyatlari kabi, yakka tomonlari esa – qoida va hodisalar nafosat hossalarining kishi ongida aks etishi; shaxsning nafosatli histuyg'ulari, kechinmalari, nafosatli didi va shu kabilardan iboratdir. Nafosatli ong barcha ijtimoiy ong shakllari, xususan ahloq bilan bevosita bog'liqdir. Bizga malumki, ahloq so'zi arabcha xalq so'zining ko'pligidir. Ahloq kishilarning bir-

birlariga, oilaga, Vatanga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarda namoyon bo'ladigan hatti-harakatlari, xulqning qoidalari yig'indisidir.

Xullas, nafosat tadqiqot yo'li bugungi kunda quyidagi rang-barang ko'rinishlar, sohalarini va muammolarini qamrab oladi.

Tabiatdagi nafosat, jamiyatdagi nafosat, nafosatni bosish nazariyasi, mehnat nafosati, texnik nafosat, turmush nafosati, shaxs nafosati, ahloqiy nafosat, adabiyot va san'at nafosati yoki badiyy nafosat va nafosat tarbiya nazariyasi.

Axloq yo'q foyda nafosat haqida so'z bo'lishi mumkin emas. Odob yo'q joyda etiborga o'rinn qolmaydi. San'at obyektiv hayotning o'ziga xos badiyy inikosi sifatida nafosatda muhim o'rinn egallaydi. Shuning uchun ham san'at nafosatda tadqiqot mavzusining eng umumiy va muhim tomonlarini ifodalaydi. San'at turlariga oid fanlarga nisbatan nafosatning tadqiqot ko'lami kengdir. Agar san'at fanlari inson ijodi – san'at asarlargagina taaluqli bo'lsa, nafosat esa tabiat, jamiyat, inson shaxsiyati doirasidagi, umuman voqyeiylik inikosi bilan bog'liq masalalarni qamrab oladi.

O'rta Osiyo qomusiy olimlari Abu Nasr Forobi, Beruniy, Firdavsiy, Navoiy, Jomiy va boshqalar asarlarida o'z davridagi badiiy amaliyotni falsafiy jihatdan tushunishga uringanligini bilib bo'lmaydi; degan ta'limotdan kelib chiqib, demak yerdagi go'zallikni o'rganish zarur ekan degan xulosaga keldilar. Go'zallikni inson qalbiga ta'sir qilish sabablarini qidirdilar va bunday ta'sirning sababi inson ruhi bilan tabiat go'zalligi o'rtasida uyg'unlikdir, degan fikrga keldilar. Ular chin inson mardona mehnat qilishi bilan birga chuqur bilim olishga intilish, odamzodga xos yaxshi fazilatlarni o'zida gavdalantirishi lozim deb hisoblar edilar.

Nafosat hissiyoti insonda uning ijodiy faoliyati, tevarak-atrof, olamga nafosat munosabatlari jarayonida shakllanib boradi. Nafosat hissiyotning shakllanishida san'atning xizmati katta.

Maktab yoshidagi o'quvchini ijodiy faolligini oshirish, ularning milliy qadriyatlarini shakllantirish bevosita ikki holatga bog'liq. Avvalo, o'quvchining

hayotiy tajribasi va musiqiy taasurotlari ko'lami qay tarzda rivojlanganligi bilan belgilansa, so'ngra – musiqiy bilim berishning samarali yo'l va vositalarini qo'llash orqali sezilarli ijobjiy natijalarga erishish mumkin.

Musiqiy ijodiy rivojlanish bilan musiqiy layoqat bir – biri bilan uzbekiy bog'liq va bir – birini taqozo etadigan jarayondir.

Musiqiy layoqat ijodini rivojlantirishning asosi bo'lib hisoblanadi. Musiqiy faoliyatni ijodga qaratilganligi esa musiqiy layoqatining kelajakda rivojlanishiga bevosita yordam beradi.

Musiqiy bilim va ijodiy jarayonlar ta'sirida o'quvchilarining musiqa savodxonligi qay tarzda o'sa borishiga qarab bolaning ijodiy rivoxlanishi ham ortadi va bu sifat musiqiy faoliyatning hamma turlariga o'zining ijobjiy ta'sirini o'tkazadi.

Maktab yoshtdagи o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishda quyidali holatlar doimo o'qituvchi etiborida bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

– o'quvchilarning ijodiy va musiqiy layoqatlarini doimo uzbekiy tarzda rivojlanib borishligini hisobga olish;

– musiqiy bilim, malaka va ko'nikmalar rivojlanishini ijodiy faollikkni o'sib, shakllanib berishning asosi deb qarash; o'quvchmlarni musiqiy – ijodiy faoliyatning turli – tuman forma va vositalarida faol jalb qilish orqali ularda hissiyot olami va intellektual imkoniyatlarini ham o'sib borishini nazarda tutish.

Bir so'z bilan aytganda o'quvchilarga puxta musiqiy bilim va tarbiya berish, bu yo'lda ko'zlangan maqsadga erishishda ularning ijodi, nota savodxonligi, faolligi, darsga nisbatan ijobjiy munosabati, bilish, o'rganish va o'zlashtirishga nisbatan intilishi va oxir oqibatda musiqiy did va musiqiy ehtiyoj shakllantirib borish, ma'naviy tarbiyalanib borishi muhim omil sanaladi.

Nafosat tarbiyasи.

Nafosat ideali bu ijtimoiy an'anening lo'nda, mazmunli ifodasidir, ijtimoiy taraqqiyotning maqadlarini keng va umuiy tarzda tushunishdir. U voqyeiylik hodisalarining o'lchovi, mezoni bo'lib qolmoqda. Nafosat ideali bu ahloq jihatidan

jamiyat o'z taraqqiyotining mazkur bosqichida erishgan muvaffaqiyatlarining eng to'la va yorqin ifodasidir. Nafosatda yetuklik doim rivojlanib, o'zgarib turadi. Kishilarning go'zallik to'g'risidagi tasavvurlari tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zgarib boradi, bu o'zgarish nafosat to'g'risidagi muhokama qanday jamiyat yoki qaysi tarixiy davrda, qanday vaziyatga yuritilayotganiga bog'liqdir.

Tabiat, jamiyat hodisalari va inson xulq-atvoridagi go'zallikni idrok va tasavvur etish, zavqli tarzda sodir bo'luvchi yoqimli ichki kechinmalarga hissiyot deb ataladi. Ahloqiy hissiyot kabi nafosat hissiyot deb ataladi. Ahloqiy hissiyot kabi nafosat hissiyoti ham insonning yuksak ma'naviy fazilatlarini belgilaydi.

Musiqa ham eng qadimiy san'atlardan biridir. Musiqa aniq dunyo hodisalarini aks ettiradi, lekin u adabiyot yoki musavvirlik san'atiga nisbatan voqyeiylikni boshqacha tasvirlaydi. Musiqada ovoz ko'rinishi bilan voqyeiylik ko'rinishlari o'rtasida aniq muvofiqlik yo'q. Unda kishilarning his-tuyg'ulari, fikrlari va kayfiyatları umumlashtiriladi va o'ziga adabiy qiyofalar orqali ifoda etadi.

San'at insonning ichki dunyosi, uning fikri, his-tuyg'ularini ijtimoiy ongning shakllariga nisbatan chuqurroq va ravshanroq ochib beradi, uning go'zal va mukammal asarlari vaqt o'tishi bilan o'z qimmatini yo'qotmaydi. Ular kelajak avlodlar uchun ham o'zining go'zalligi, insonning ichki hissiyoti va kechinmalarini mahorat bilan aks ettirish tufayli zarur hamda ahamiyatli asarlar bo'lib qolaveradi. Musiqa bevosita his tuyg'ularimizga, kechinmalarimizga qaratilganligi tufayli tinglovchini asarda ifodalangan kechinmalar, fikrlar doirasiga faol jalb etadi. Mana shuning uchun ham musiqa bir vaqtida bir necha kishilar bilan his-tuyg'ular tilida, insonning qalb tilida so'zlashish imkoniyatiga ega.

Ma'naviy-ahloq tarbiyasi.

Barkamol inson uchun zarur bo'lган quyidagi xususiyatlarni shakllantirishga erishish lozim:

- Ijobiy harakatlar mohiyati, mazmunini to'g'ri tushunish hamda jalb qilish, munosabat bildira olish;

- Jamoada yashash, mehnat qilish malakalarini egallash;
- Barkamol insonni tasavvur etish, uning ma'naviy qiyofasini shakllantirish usullarini izlash.

O'quvchilarni ma'naviy boy, jismoniy jihatdan sog'lom qilib tarbiyalash maqsadida dastlab ularning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash lozim.

O'quvchilar qalbini odob-ahloq nurlari bilan yoritmoqchi bo'lgan tarbiyachi chuqur bilim, yuksak mahorat va tarbiyachilik san'atini egallamog'i kerak, buning uchun:

- Ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda o'qituvchi-tarbiyachi nazariy va amaliy asoslari haqida bilimga ega bo'lishi;
- Ommaviy axborot vositalari materiallari bilan tanish bo'lishi va ulardan kerakli joyda unumli foydalanish;
- Ta'lim to'g'risida axborotlardan, yangi pedagogik texnologiyalardan voqif bo'lish;
- Har bir masalaga, voqyea-hodisaga ijobiy yondoshish, tarbiyaviy tadbirlarning sifat va samaradorligini oshirishda yangicha ishslash uslubi va shakllaridan foydalanish;
- XXI asrni qarshi olgan o'zbek oilasida yuksak ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda mahalla va jamoatchilikni ijobiy ta'sirini kuchaytiruvchi tadbirlarni joriy etish zarur.

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari rahbarlari, o'qituvchi, tarbiyachilar, tadbirlarning mazmundorligini taminlashda boy milliy va umuminsoniy qadriyatlardan keng foydalanish, tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan manbalarni ajrata bilish kerak;

- O'quvchilar jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o'rganib, unga tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan manbalarni ajrata bilishi kerak;
- Tadbirlar uchun uslublarni tanlab, ko'zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini ko'ra bilish kerak;
- Ilg'or tajribalarni kuzatib, tahlil qilib, undan ijodiy foydalanish;

- Tarbiyaviy tadbirlarni o'quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirish, takomillashtirishi zarurdir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning uslubiy o'tmishi asosan o'tmish xalq og'zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklari, xalq arboblari, Markaziy Osiyolik mutafakkir, marifatparvar olim, pedagoglarning boy merosidandir.

Mustaqil O'zbekistonda birinchi marta tarbiyaviy ishlarning milliy asoslarini hisobga olib, "Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar" konsepsiysi ishlab chiqildi. Qori-Niyoziy nomidagi O'z PPITL olimlar guruhi va O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya tarbiyaviy ishlarni nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri rejalashtirish imkonini yaratdi. Mazkur konsepsiyada tarbiyaviy ishlarning asosiyo yo'nalishlari maqsad va vazifalari quyidagicha berilgan:

Shaxsning har tomonlama kamolga erishuvchi – uning ayrim qirralari yoki hislatlarining to'laqonlilagini, ya'ni jismoniy, ahloqiy, siyosiy, estetik, iqtisodiy, huquqiy qarashlari yig'indisini o'z ichiga oladi.

Jumladan:

- Yoshlarni falsafiy dunyoqarashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishda ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish;

- Vatanparvarlik – dunyoviy fikrlash madaniyat arboblariga bo'lган alohida munosabat va o'rganish, o'z xalqi, davlati, uning himoyasi uchun hamisha shay bo'lib turish, O'zbekiston madhiyasi, bayrog'i, gerbi, konstitutsiyasi va uning prezidentiga sadoqatli qilib shakllantirish;

- Sog'lom turmush tarzi uchun intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi bo'lishga tayyorgarlik ko'rish. O'zining har bir hatti-harakatiga va uning oqibatiga masuliyat bilan qarash hislatlarini tarbiyalash uchun sharoit hozirlash. Insonning atrof-muhitga ta'siri, kishilar bilan o'zaro munosabatlarida yuqoridagilarga amal qilish ruhida tarbiyalash;

- Mustaqil davlat – O’zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to’g’ri hosilona baho berishga o’rgatish. Uning tinchliksevarlik, demokratik va boshqa davlatlarning ichki siyosatiga aralashmaslik, betaraflik, oshkora-ochiq tashqi siyosati va o’z xalqining turmush darajasini oshirishga yo’naltiradigan, uni ijtimoiy himya qiladigan ichki siyosatini to’g’ri tushunmoq va tushuntirmoq kerak.

Tarbiya’ning asosiy tizimi quyidagilar bo’lishi lozim:

- Tarbiyada katta bo’layotgan inson shaxsini oliv ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir o’g’il-qizning betakror va o’ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligi etiborda tutilishi;

- Milliylikning o’ziga xos an’analariga taya’nish. Lekin tarbiya’ning milliy “bunyodkorligi” yosh avlodning ko’p millatli jahon madaniyati boyliklariga qiziqishlarini, intilishlarini inkor qilmaslik.

X U L O S A

Mustaqil Respublikamiz milliy istiqloliy o'zgarishlarni boshidan kechirayotgan hozirgi davrda yoshlarning oldida ulkan vazifalar qo'yadi. Ayniqsa, milliy mafkura, milliy istiqlol g'oyasi, ma'naviy shakllanish, madaniy meros va umuminsoniy qadriyatlar sohasida kuchli izlanishlar zarurdir. O'zgarish va yangilanish ma'naviy barkamollikka erishish uchun avvalo, ahloqiy, ma'naviy va nafosat tarbiyalarini rivojlantirish eng dolzarb masala hisoblanadi.

Malumki, o'quvchilarni ma'naviy ahloqiy sifatlarini shakllantirishida asosiy muammosi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarini amalga oshirishning muhim qarorlaridan biri va boshlang'ich vazifalaridan biri musiqa pedagogikasi fakultetlarida bo'lg'usi o'qituvchilarni professional jihatdan puxta tayyorlashdan iboratdir.

Agar musiqa o'qitish uslubi xususiy uslublar oilasida navqiron predmet ekanini va unda uslublar borasida hali muammolar mavjudligini mazkur predmetning samaradorligini oshirishda uning optimal uslublarini belgilash va ulardan darsda unumli foydalanish naqadar muhimligini tasavvur etish qiyin emas. Bu ko'proq musiqa darslarining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq.

IV-VII sinf musiqa darslarida o'quvchilarning ahloqiy sifatlarini shakllantirishda tushuntirish uslubida ilmiy isbotlash uslubi sifatida musiqa darslarida ham ishlatiladi. U musiqa savodi, musiqaning tuzilishi va rivojlanishi kabilarni o'rganishda hamda ularning ahloqiy sifatlarini shakllantirishda qo'llaniladi.

Ko'rgazmali o'qitish uslublari IV-VII sinf musiqa darslarida ohanglarni faqat etish organi orqali tinglab idrok etish mumkin. Bunda ko'rish asosiy rol o'ynamaydi, balki doskaga ifodalanadigan nota yozuvlari, plakatlar, o'qituvchining dirijyorlik ifodalari, raqs harakatlari va boshqalar musiqani jonli va aniq idrok etish yoki ijro etish uchun yordam beradi. Muhimi, idrok jarayonida o'quvchilarda musiqa "oqimi"ni kuzatib borishga va shu bilan birga musiqa asosida nimalar yoki

qaysi obrazlar ifodalanganligini ilg'ab olishga o'rgatish zarur. Demak, musiqa boshqa san'at turlaridan farqlanib, darsda ko'rgazmali materiallardan deyarlik ikkinchi darajada foydalanishni taqozo etadi. Musiqa mazmunini, obrazlari yoki syujetlarini ifodalovchi suratlar ko'proq IV-VII sinf o'quvchilarini qiziqtiradi.

IV-VII sinf musiqa darslarida o'quvchilarning umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirishda musiqa darslarini rivojlantirish, darsnnig tizilishi har bir sinfning bilim va malakalarini, ovoz diapazoni, qobiliyati, qiziqishi hisobga olinadi. Dastur choraklarga, mavzularga bo'linib, umumdidaktik prinsiplar asosida tuziladi.

Dasturning bosh mavzui "Musiqa va hayotdir". Shu boisdan, musiqa orqali hayotni o'rganish bilan birga musiqaning hayotdagi o'rni ham o'rganiladi.

Xalq ta'limi tizimidagi, musiqa ta'lim-tarbiyasining mazmunini qayta tiklash jarayonida milliy musiqamiz tarixini, madaniy merosimizni, boy an'analarimizni har tomonlama o'rganib yosh avlodni ma'naviy, estetik va ahloqiy fazilatlarini tarbiyalab shakllantirish vazifasini musiqa rahbarining zimmasiga muhim vazifa yuklaydi. Demak, rahbar musiqa san'atining nazariy va amaliy sohalaridan bilim va malakalarga ega bo'lish bilan birga milliy musiqamiz, madaniyatimiz, ma'naviyatimiz haqida ham puxta bilimga ega bo'lishi kerak.

Umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishning maqsadi va eng asosiy tarbiyaviy jarayoni har tomonlama yetuk yangi tipdag'i insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Jamiyat va hayotni yangi sifat holatiga o'tkazish qanchalik zarur bo'lsa, kishilarning madaniyatli, ma'naviy yuksak, ahloqiy pok, bilimli, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy, madaniy yechimlarni hal qilish kishilarning mehnatga, ijodiy faoliyatiga bog'liq jarayondir. Binobarin, yoshlarni ma'naviy-ahloqiy sifatlarini shakllatirmsadan turib, ularning psixologiyasi va tafakkurida kayfiyatida o'zgarish qilmasdan turib, mamlakatni rivojlantirish qiyin kechadi.

Demak, IV-VII sinf o'quvchilarni ahloqiy sifatlarini shakllantirish va tarbiyalashning asosiy yo'llaridan biri va mazmuni ular qalbida o'z xalqining shon-sharafli o'tmishi bilan faxrlanish, g'ururlanish, iftixor tuyg'ularini uyg'otish,

insonparvarlik, kattalarga hurmat, do'stlik, mehnatsevarlik, ahillik va boshqa ijobiy hislat va fazilatlarni shakllantirishdan iborat. Shuning uchun musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs bo'lmosh'i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T-2000 – 112 b.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin, 2 tom, T-1996 y.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3 tom. T-1996 y.
“O’zbekiston”
4. Matyoqubov O. Og’zaki an’analardagi professional musiqa asoslariga kirish – Toshkent “O’qituvchi”, 1985 y.
5. Omonullayev D. Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan leksiyalar kursi – Toshkent, 1990 y.
6. Yu.Rajabiy “O’zbek xalq sozandalari” Toshkent – 1976 yil.
7. Qodirov R.G. Ko’p ovozli musiqa va qo’shiqlarni o’rganish. T-1985-1991 yil.
8. Omonullayev D. “Umumiy ta’lim maktablarida musiqa dasturlari” T.1992 y.
9. Sarimsoqov V. “O’zbek marosim folklori”, Toshkent. “O’qituvchi” 1986 yil.
10. “O’zbek xalq sozandalari” 1-kitob, Toshkent 1959 yil.
11. Kiyamov N.S. Musiqa darslarida o’smirlarni vatanparvarlik his-tuyg’ularini shakllantirish. Toshkent, 1995 y, ped.fan.nom. Avtoreferat 22-bet.
12. O’quvchi shaxsining ahloqiy sifatlarini shakllantirish. Nizomiy nomli TashDPI. – 1991 y, 10-bet. Ilmiy maqolalar to’plami.
13. Musiqa ta’limi va tarbiyasi birligi. Nizomiy nomli TashDPI. Ilmiy maqolalar to’plami. №1son. Toshkent. – 1996 y, 3-bet.
14. Yo’ldosheva S.H. O’zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta’limining rivojlanishi. Toshkent. – O’qituvchi nashriyoti, -1985 yil, 3-bet.
15. Qodirov M. Badiiy tarbiya va havaskorlik. Toshkent. O’zbekiston nashriyoti. №12, 3-5-betlar.